

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 20 - oktabr

351-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zator tumani "Erkindaryo" OFY
hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zator tumani hokimligining 2023-yil 16-sentabrdagi 01-263-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bo'zator tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan "Erkindaryo" OFY hududida joylashgan "Absamet" mazoriga 12,75 gektar hamda "Alawatdin iyshan" mazoriga 4,66 gektar yer maydonlari 1-2-ilovalarga muvofiq Bo'zator tumani Obodanlashtirish boshqarmosiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) Bo'zator tumani hokimligi (K.Allaniyazov) bilan birgalikda mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.


5. Mazkur qarorning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 20-oktabrdagi
351-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova



Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 20-oktabrdagi
351-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Buzatov tumani Erkindaryo OFYda joylashgan "Alawatdin Iyshan" Qabristoni uchun
ajratilgan er uchastkasining
TARIXI M-b 1:3000



Er uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar:

Er uchastkasi aholi punktida joylashgan bo'lib,

G'a rb tarafi avtomobil yolidan 438 metr masofada qolgan taraflari ochiq maydon bilan chegaralangan

Koordinatasi: 1. 42°51'53,2374" 59°29'49,2828"

2. 42°51'55,6932" 59°29'54,5260 "

3. 42°51'55,3641" 59°30'00,1072"

4. 42°51'53,7222" 59°30'02,1349"

5. 42°51'49,6349" 59°29'59,5254"

6. 42°51'46,2837" 59°29'53,5580"

Tuman markazidan 17,6 km masofada

Er uchastkasi maydoni: 4,66 ga

Er fondi toifasi: Qishloq xo'ja ligiga muljallanmagan erlar

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Bozataw rayoni Abadanlashtiruv

Basqarmasi "Alawatdin Iyshan" Qabristoni ushlin

Er turi: Qishloq xujaligida foydalanilmaydigan boshqa erlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Er uchastkasining kadastr raqami: 23:03:04:02:02:0042

Foydalanish maqsadi: Qabristonlar